

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025
**BAXSHI IJROCHILIGINI O'QITISHDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK
YONDASHUVLAR**

Jo'rayeva Guliruxsor Ulug'bek qizi

*Qo'qon Davlat Unverstiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishi
tayanch doktoranti*

e-mail: Saritsa.tm@inbox.ru mobile: +998503779476

Jahongir Mamatqosimov

Ilmiy rahbar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

P.f.f.d professor

mobile: +998 94 628 88 22

Annotatsiya: *Ushbu maqolada baxshi ijrochiligini o'qitish jarayonida psixologik va pedagogik yondashuvlarning o'rni tahlil qilinadi. Talabalarda baxshichilik san'ati ko'nikmalarini shakllantirishda individual yondashuv, ijodiy muhit va sahna madaniyatining ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Baxshichilik, ijrochilik mahorati, psixologik yondashuv, pedagogik metodika, improvizatsiya, sahna madaniyati, milliy qadriyat, ijodiy tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль психологических и педагогических подходов в процессе обучения исполнительскому искусству бахши. Особое внимание уделяется индивидуальному подходу, творческой атмосфере и значению сценической культуры в формировании у студентов навыков бахшичества.*

Ключевые слова: *Бахши, исполнительское мастерство, психологический подход, педагогическая методика, импровизация, сценическая культура, национальные ценности, творческое мышление*

Annotation: *This article analyzes the role of psychological and pedagogical approaches in the process of teaching the art of bakshi performance. It highlights the importance of individual approaches, creative environments, and stage culture in developing students' skills in bakshi art.*

Keywords: *Bakshi, performance skills, psychological approach, pedagogical methods, improvisation, stage culture, national values, creative thinking*

Kirish

Baxshichilik – bu nafaqat milliy musiqiy ifoda, balki chuqur madaniy, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xalq ijodiyoti namunasi hisoblanadi. Baxshi – bu xalqning og'zaki tarixchisi, shoir, sozanda, dramatik obraz yaratguvchi va eng muhimi – ma'naviy tarbiyachi. Oliy ta'limda, ayniqsa xalq ijodiyoti yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun baxshichilik san'atini chuqur o'rganish ularning ijodiy salohiyatini

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

ochish, badiiy didini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va barkamol shaxs bo'lib kamol topishda beqiyos ahamiyatga ega. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'limning psixologik-pedagogik va uslubiy asoslari, baxshi ijrochilikni o'qitishning samarali metodikasi, talabalar ruhiy-ma'naviy rivoji, shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan individual yondashuvlar yoritiladi. Baxshichilik san'ati – milliy tarbiya va ma'naviyat manbaidir. Baxshilik san'ati ming yilliklar davomida xalq og'zaki ijodiyoti asosida rivojlangan. U nafaqat musiqiy mahorat, balki hayot falsafasi, tarixiy xotira va axloqiy qadriyatlar tizimini ham o'zida mujassam etadi. Baxshi dostonchilik orqali:

xalq urf-odatlarini,
vatanparvarlik g'oyalari,
mehnatga sadoqat,
insoniy fazilatlar targ'ib qilinadi.

Bu jihatlar uni pedagogik jihatdan kuchli vositaga aylantiradi. Talabalar bu san'atni o'rganish orqali o'z shaxsini, dunyoqarashini shakllantiradi. Shu sababli, baxshichilikni o'qitish faqat musiqiy yoki adabiy mashg'ulot bo'lib qolmay, balki psixologik-pedagogik tarbiya vositasiga aylanadi. Psixologik-pedagogik yondashuvlarning zaruriyati shundaki, oliy ta'limda har bir talaba – bu o'ziga xos shaxs, o'zining qiziqishlari, ehtiyojlari, iste'dod darajasi va psixologik holatiga ega. Shu sababli, baxshichilikni o'qitishda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim:

Talabani bilim olishiga yo'naltirilgan yondashuv. Har bitta talabaning ovoz balandligi, improvizatsiya salohiyati, sahna madaniyati va nutqiy ifoda saviyasi har xildir. Shu sababdan talaba bilan ishlashda individual metod qo'llash juda zarur: kimnidir she'riy nutqqa qobilyati yaxshi, kimnidir cholg'u ijrosiga, boshqasini esa doston aytishga. Shu sabab talabani qobilyatiga qarab yo'naltirish lozim. Qolaversa talaba uchun ijodiy muhit yaratish lozim bundan talaba qanday foydalanadi. Ijodiy o'zini ifoda etish erkinligini o'rganadi – baxshi tayyorlashdagi eng muhim psixologik omillardan biri bu ijodiy erkinlikdir. Talaba o'z fikrini qo'shiq orqali aytishga, dostonni o'z talqinida kuylashga imkon topishi kerak. Talaba ijod qilishi kerak erkin ijod qilish uchun esa erkin fikrlashi lozim erkin fikrlashi uchun esa ijodiy muhit juda katta yordam beradi. Talabani o'qitishda yana bir muhim omil mavjud bu-rag'bat va ishonch. Psixologik jihatdan talabani rag'batlantirish, unga ishonch bildirish, hatto eng oddiy ijrosiga ham ijobiy fikr bildirish uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va talaba o'zini ustida koproq ishlaydi chunki unda o'ziga nisbatan ishonch paydo bo'ladi va men buni udallay olar ekanman degan xulosaga keladi bu ham rag'batning kichik ammo beradigan natijasi ulkan ko'rinishi. Baxshichilikni o'qitishning uslubiy asoslari esa bu san'atni o'rganishda faqat nazariy bilim yetarli emasligini aytadi. Quyidagi uslubiy yondashuvlar qo'llanilsa talabaning bilimlari yanada mustaxkamlanadi va biz ularga buni bosqichma-bosqich o'rgatishimiz lozim. Talabaga darhol doston aytish topshirig'ini berish emas, balki quyidagi ketma-ketlik asosida ko'nikmalarni shakllantirish kerak:

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Bosqich	Mazmuni	Maqsad
1. Doston yoki termalarni to'g'ri, ravon va ohangdor o'qish	Talaffuz, nafas, ohang ustida ishlash	Nutq va ifoda ko'nikmasini shakllantirish
2. Improvizatsiya asoslarini tushunish	Erkin fikr bildirish, ijodkorlik mashqlari	Mustaqil ijodiy yondashuvni rivojlantirish
3. Doston matnini yod olish va tahlil qilish	Doston mazmuni, syujeti, obrazlarini chuqur o'rganish	Badiiy tafakkurni rivojlantirish
4. Soz bilan ishlash, ritmni his qilish	Musiqiy asbob bilan muvofiqlik, ritm mashqlari	Kuylash va ijro uyg'unligini shakllantirish
5. Sahna madaniyati, mimika, auditoriyaga murojaat qilish	Harakat, mimika, sahna nutqi, tomoshabin bilan aloqa	Sahna ijrochiligi madaniyatini shakllantirish

Amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitishda esa, talabalar asosan amaliy ijro orqali o'rganadilar. Har bir nazariy bilim amaliy mashq bilan mustahkamlanishi kerak. Ijrochilik san'atida asosan ustoz-shogird an'anasi orqali bilimlar mustahkam egallanadi. Ustoz baxshilar bilan jonli uchrashuvlar, master-klasslar, kuzatuvlar talabada nafaqat bilim, balki mahorat shakllantiradi. Talabalarga alohida motivatsiyon dastur bo'ladi. Bu uslub xalq ijodiyoti talabalarini o'qitishdagi an'anaviy metodlardan biri bo'lib, bugungi ta'lim tizimida ham dolzarbdir. O'quv jarayonida metodologik faoliyat turlari quyida gicha o'rganilsa talabaning ijro mahoratini oshirish yanada oson bo'ladi:

Faoliyat shakli	Maqsad
Ustoz-baxshi bilan suhbat	Tajriba almashish, shaxsiy taassurot olish
Video tahlil	Ijrochilikdagi kamchiliklarni ko'rish, xulosa chiqarish
Rol o'yinlari	Doston ichidagi obrazga kirib ijro etish

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Faoliyat shakli	Maqsad
Jamoaviy ijro mashg'uloti	Ritmni his qilish, uyg'unlikda ishlashni o'rganish
Refleksiya sessiyalari	O'z ustida fikr yuritish, o'zgarishlarni his qilish

Xulosa qilib aytganda baxshichilik san'ati oliy ta'limda nafaqat ijodiy yo'nalish sifatida, balki shaxsni tarbiyalovchi, milliy qadriyatlarni singdiruvchi, psixologik tayyorgarlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida o'rganilishi lozim. Psixologik-pedagogik yondashuvlar orqali baxshi ijrochilik ko'nikmalari nafaqat rivojlanadi, balki talabada o'ziga ishonch, ijodiy tafakkur va milliy o'zlik shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrasini. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
2. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Yusupov, B. O'zbek baxshichiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Kadirova, G. Psixologiyaning asosiy tushunchalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Qurbonov, X. O'zbek xalq dostonlari va baxshichilik san'ati. – Nukus: Bilim, 2015.
6. Ergashev, N. Oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020.
7. Mirzaeva, Z. Talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Istiqloq, 2018.
8. Bobonazarova, S. San'atshunoslik asoslari. – Termiz: Surxon, 2017.
9. Jalolov, N. Dostonchilik – xalq ruhiyatining timsoli // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2020, №4.
10. G'afurov, M. Psixologiya: umumiy kurs. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
11. Hasanov, S. Baxshi san'ati va yoshlar tarbiyasi // "Ma'naviyat" jurnali, 2022, №2.
12. UNESCO. Intangible Cultural Heritage: Oral traditions and expressions, including language as a vehicle of the intangible cultural heritage. – Paris, 2003.
13. Vygotsky, L.S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
14. Dewey, J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
15. Rahmonov, A. Doston va dostonchilik san'ati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.